TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Umarova Zevi Odilovna
Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Nurboyeva Zilola
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklari haqida yozilgan bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari hamda moliyaviy barqarorlik borasidagi ilmiy izlanishlar tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: omonatchilar, kreditorlar, mahalliy bozor, bank, kapital va pul bozori, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация

Эта статья написана о коммерческом банке и содержит теоретические основы его финансовой устойчивости, а также информацию об истории научных исследований в области финансовой устойчивости.

Ключевые слова: вкладчики, кредиторы, местный рынок, банк, рынок капитала и денег, финансовая стабильность.

Annotation

This article is about commercial banks and provides information about the theoretical foundations of its financial stability and the history of scientific research on financial stability.

Keywords: depositors, creditors, local market, bank, capital and money market, financial stability.

Hozirgi sharoitda o‘z aksionerlari, xodimlari, omonatchilari va kreditorlari manfaatini

ta'minlash va bir vaqtning o‘zida davlat nazorat organlari tomonidan bank siyosatiga, shuningdek kredit va investitsion operatsiyalarni olib borishga nisbatan qo‘ygan talablarini bajarish vazifasi banklar uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. So‘nggi yillarda bank tashkilotlari sonining ko‘payib borishi oqibatida ular mahalliy va jahon pul va kapital bozorlariga chiqishga majbur bo‘lishmoqda. Ko‘pgina holatlarda mahalliy bozordan jalb qilingan depozitlarning o‘sib borishi ham mijozlarning kredit mablag‘lari va yangi xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olmayapti. Mablag‘larni jalb qilish uchun kapital va pul bozoriga chiqish bank hisobotlarining investorlar va aholi tomonidan chuqur o‘rganilishini talab etadi. Bu esa bank rahbariyatini qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lidagi ishlarini faollashtirishni taqozo qiladi. Ana shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishga erishadi.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo’jaliklari va tadbirkorlik subyektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo‘l qo‘ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o‘sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta’sir ko‘rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin. Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o‘zaro qattiq bog‘langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya’ni tizimli xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo‘lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O‘zbekiston moliya tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli, uning barqarorligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatib boradi va baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to‘planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta’minlash choralarini ko’rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marta moliyaviy barqarorlik sharhini chop etadi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko’zlagan asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

Moliyaviy barqarorlik borasidagi ilmiy izlanishlar tarixi 1 asrdan oshiqroq davrni o‘z ichiga oladi. Birinchi bo‘lib banklar barqarorligi tahlilini Garvard Universiteti Bank ishi va Moliya fakulteti Asisstent Professori Oliver M. W. Sprague o‘z monografiyasida amalga oshirgan. Monografiyada asosiy e‘tibor depozitorlar ishonchini shakllantirish usullari va ushbu muammoga yetarlicha e‘tibor berilmagandagi uning oqibatlariga; depozitorlar ishonchini qozonishning sifat ko‘rsatkichlari hamda usullariga qaratilgan edi. Umumiy olganda, bunday usullar o‘zgaruvchan xarakterga ega, ya’ni bu borada oldindan ma’lum reja va usullar ishlab chiqilishi bir muncha qiyin ish. Shunday bo‘lsada, o‘tgan asr davomida fanda moliyaviy barqarorlikni boshqarish xususida bir qancha usul va mezonlar shakllandi hamda ularning kompyuterga asoslangan mukammal usullari so‘nggi bir qancha o‘n yillik mobaynida keng miqyosda foydalanilib kelinmoqda.

Prof O.Lavrushinning fikriga ko‘ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini

baholashda asosiy e’tibor guruhlash va tarkibiy tahlilga qaratilishi lozim, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin [1. 203-bet].

Biz O.Lavrushinning ushbu xulosasiga to‘liq qo‘shilamiz va qo‘shimcha sifatida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda qiyosiy tahlil usuli ham muhim o‘rin tutadi. Bunda qiyosiy tahlilni boshqa banklar bilan amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

AQShlik iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy e’tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta’minlashga qaratilishi lozim, deb hisoblaydi [2.81-bet].

Doimiy ravishda berib boriladigan Yevropa Markaziy Banki va Xalqaro Hisob-kitob Bankining moliyaviy barqarorlikni baholash usullari bo‘yicha tadqiqot natijalarida ko‘rish mumkinki, barqarorlikning boshqaruv metodologiyasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asosiy e‘tiborni qaratadi.

YMB (Yevropa Markaziy Banki) moliyaviy barqarorlik tahlili vositalarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

- umumtarmoq uzilishlarning kelib chiqish manbalarini aniqlash
- og‘ir moliyaviy tanglik sharoitida real iqtisodiyotga qilinishi mumkin bo‘lgan potensial xarajatlarni baholash moliyaviy institutlar tarmog‘ining sinuvchanligi.

Shuningdek, Irving Fisher Qo‘mitasi bayonnomasida moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlarini yaratishda markaziy banklar tomonidan ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar, yagona umumiy o‘lchovlar atroflicha keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, iqtisodiy sektorlar xarakteriga qarab 6 guruhga ajratilgan:

1.Real sektor (Sanoat)
2.Korporativ tarmoq riskliligi
3.Uy xo‘jaligi tarmog‘ining sog‘lomliligi
4.Tashqi sektor
5.Moliyaviy sektor
6.Moliyaviy bozorlar

Jahon Banki saytida keltirilib o‘tilgan ta’rifga ko‘ra moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning moliyaviy tanglikka moslashuvchanligi va chidamliligidir. [3.51-bet]. Moliyaviy nobarqarorlik banklar sinishi, giperinflyatsiya yoki fond bozori inqirozi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, barqarorlikni o‘lchashning bir qancha usullari mavjud, jumladan, z-score usuli, Merton modeli (aktivlar qiymati modeli), KMV modeli, to‘lovsizlik masofasi (The Distance to Default) va boshqalar.

Masalan, z-score usuli. Bu usulda bankning to‘lovga qobillilik riskini aniqlash maqsadida kapitalizatsiya va risk (kapital qaytim qo‘nimsizligi) solishtiriladi. Ya’ni:

$$z \equiv (k+\mu)/\sigma$$

Bunda,

k – kapital, aktivlarga nisbatan foiz ko‘rinishida μ – qaytim, aktivlarga nisbatan foiz ko‘rinishida;

σ – aktivlar qaytimining standard og‘ishi, qaytim qo‘nimsizligi qiymati ko‘rinishida;

Bizning mamalakatimizda ham bu borada bir qator qarorlar ishlab chiqilgan va tijorat banklari uchun ushbu masalani to‘g‘ri hal etishga zarur asos yaratib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Лаврушин О.И. Банковскойе дело. – М.: КноРус, 2008. – С. 251.

2.National Bank of the Republic of North Macedonia, List of Systemically Important Banks, 2022.

3.Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314-319.

4.Hong Kong Monetary Authority, CA-B-2 “Systemically Important Banks” (V2) dated

23.04.2021, pp. 19–20.

5.Umirova, G. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari. *Engineering problems and innovations*.

6.Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

7,Umarova, Z. O. "Business opportunity for tourism development." *Экономика и социум* 10 (2020): 275-278.

8.Obidova, F., and Z. Umarova. "Foreign experience of small business development." *Экономика и социум* 5-1 (2021): 376-379.